
Har bir murojaat e'tibordan chetda qolmaydi

Tuman Xalq qabulxonasida tuman hokimi fuqarolarni qabul qildi.

Qabul davomida fuqarolar tomonidan bandlik, uy-joy, nafaqa, moddiy yordam, elektr, suyultirilgan gaz balonlari bilan ta'minlash, ko'chalar ta'miri kabi masalalar bo'yicha murojaatlar qilindi.

“Kichikbeshkapa” MFY Hilol ko'chasida yashovchi fuqaro D.Komilova o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish masalasida murojaat qildi. Murojaat joyida ko'rib chiqildi va tuman bandlikka ko'maklashish markazi rahbari tomonidan fuqaro bo'sh ish o'rinlari bilan tanishtirildi.

“Do'stlik” MFY Kumushbuloq ko'chasida yashovchi fuqaro R.Rahimov mahalladagi elektr simlari nosozligi sababli tez-tez chiroq o'chish holatlari kuzatilayotganligi bo'yicha murojaat qildi. Ushbu murojaat ham joyida ko'rib chiqildi va tuman elektr ta'minoti korxonasi rahbariga muammoni tez fursatda hal etish bo'yicha topshiriq berildi.

Fuqarolarning har bir murojaatlari o'rganib chiqildi, ma'lum muddat vaqt talab etadigan muammolar yuzasidan murojaatchilarga tushuntirishlar berildi.









2019-10-22 15:37:21